



*Soxiba RASULOVA,*

*Dotsent, PhD, Samarqand davlat chet tillar instituti, Samarqand, O'zbekiston*

*E-mail rasulovasokhiba@gmail.com*

*PhD D.O'rinboeva taqrizi asosida*

### VASHINGTON IRVING PROZASIDA LINGVISTIK XUSUSIYATLAR ORQALI SATIRA VA YUMORNING IFODALANISHI

Аннотация

Ushbu maqolada Vashington Irving prozasida lingvistik xususiyatlarning satira va yumorni kuchaytirishdagi o'rni tahlil qilinadi. Yozuvchining badiiy til vositalari, jumladan kinoya, ironiyaga asoslangan ifodalar, leksik va stilistik birliklar orqali satira va yumor qanday yaratilishi ko'rib chiqiladi. Shuningdek, Irving ijodida xalq og'zaki ijodi elementlari va tarixiy-uslubiy qatlamlarning badiiy matnga ta'siri yoritiladi. Tadqiqot natijalari yozuvchining uslubi satira va yumorni ifodalashda muhim lingvistik asosga ega ekanligini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** Vashington Irving, satira, yumor, lingvistik xususiyatlar, stilistika, ironiya, badiiy matn, proza.

### ВЫРАЖЕНИЕ САТИРЫ И ЮМОРА ЧЕРЕЗ ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ В ПРОЗЕ ВАШИНГТОНА ИРВИНГА

Аннотация

В данной статье анализируется роль лингвистических особенностей в усилении сатиры и юмора в прозе Вашингтона Ирвинга. Рассматриваются художественные языковые средства писателя, включая иронию, стилистические и лексические приёмы, с помощью которых создаются сатирические и юмористические эффекты. Также исследуется влияние элементов народного фольклора и историко-стилистических слоёв на художественный текст. Результаты исследования показывают, что стиль Ирвинга имеет важную лингвистическую основу в выражении сатиры и юмора.

**Ключевые слова:** Вашингтон Ирвинг, сатира, юмор, лингвистические особенности, стилистика, ирония, художественный текст, проза.

### THE EXPRESSION OF SATIRE AND HUMOR THROUGH LINGUISTIC FEATURES IN THE PROSE OF WASHINGTON IRVING

Annotation

This article analyzes the role of linguistic features in enhancing satire and humor in Washington Irving's prose. It examines the author's artistic language devices, including irony, stylistic and lexical tools used to create satirical and humorous effects. The study also explores the influence of folklore elements and historical-stylistic layers on the literary text. The findings show that Irving's style is strongly grounded in linguistic mechanisms that effectively convey satire and humor.

**Keywords:** Washington Irving, satire, humor, linguistic features, stylistics, irony, literary text, prose.

**Kirish.** Satira (gr. satura – turli, aralash so'zidan) – ijtimoiy hayotning ma'lum tomoni yo ayrim guruh va shaxslarning yaramas salbiy xislatlaridan achchiq kulib va uni tanqidiy tasvirlab yozilgan hajviy asar. Satirik asarlar turli janrlarda (roman, povest, hikoya, she'r va boshqa janrlarda) yozilishi mumkin. U holda bunday asarlar "satirik roman", "satirik povest", "satirik hikoya", "satirik she'r" deb ataladi [1]. Badiiy ijodda satiraning o'rni katta. Xususan, Fransua Rable, Djonatan Swift, V.V.Mayakovskiy, N.V.Gogol, V.Irving, Ch.Dikpenslarning satirik asarlari davr adabiyotining yetuk namunalari. Satirada hayotdagi qusurlar ustidan zaharxanda kulgu, sarkazm, masxaralash usuli yetakchilik qiladi. Qahramonlardagi tashqi jihatdan ko'zga ko'rinmaydigan, lekin ichki jihatdan yaramas, arzimas odatlar fosh etiladi. Kulgu qanchalik fosh etsa, uning mohiyati shunchalik ochiladi.

**Adabiyotlar tahlili.** Satirik obraz qisman salbiy obrazga o'xshab ketsa-da (davr ikkala tipdagi obrazlar vositasida hayotdagi salbiy kishilar yoxud hayotdagi qusurlar tanqid qilinadi), ular o'rtasida prinsipial farqlar ham bor: salbiy obrazda hayotdagi qusurlar inkor qilinsa-da, hajv etilmaydi – yozuvchi ular ustidan ochiqdan-ochiq kulmaydi. Satirik obrazlarda esa, aksincha, hayotdagi qusurlar ustidan

zaharxanda kulish, sarkazm, kinoya, masxaralash usuli yetakchilik qiladi. Satirik obrazning hatti-harakatlari va qiliq-odatlaridan kishi nafratlanadi, ulardan jirkanadi. Komik-yumoristik obraz – butun faoliyati quvnoq, kulgi bilan yo'g'irilgan xarakter. Bunday obrazlar vositasida yozuvchi hayotdagi ayrim nuqsonlar ustidan kuladi, ularni tuzatishga da'vat etadi. Rus adabiyotshunosi V.Dneprov [2] romanni, Y.Borev [3] satirani, qator kino nazariyotchilari ssenariyni, o'zbek adabiyotshunosi B.Sarimsoqov [4] esa paremiyani alohida adabiy tur deb hisoblashni taklif etadilar. Albatta, bu takliflarning hammasi ham muayyan asosga ega, biroq ularni qabul qilmaslikka sabablar ko'proq ko'rinadi. Masalan, roman o'zida epos va dramaga xos xususiyatlarni jam etgani shubhasiz, lekin romandagi dramatik unsurlar epos tarkibiga singib ketadi, uning xizmatida bo'ladi. Ya'ni roman dramani o'ziga singdirgani holda ham epik asar bo'lib qolaveradi. Chunki uning asosini rivoyat tashkil qiladi, dramatik unsurlar esa voqealarni hikoya qilishning usullaridan biriga aylanadi. Yoki satirani alohida tur deb sanashga monelik qiladigan sabab shuki, u o'zini epik, lirik va dramatik turlarda birdek namoyon eta oladi.

**Tahlil va natijalar.**

1-jadval

Washington Irving asarlarida foydalanilgan badiiy vositalarning ko'rsatkichlari

Satira	Yumor	O'xshatish	Allegoriya	Mubolag'a	Sifatlash	Kinoya	Epitet	Metafora	Fantaziya
85	21	5	13	6	14	26	5	10	7

O'xshatish 11.15% ga teng ushbu vositasidan tog'larni, vaqtning o'tishini, Sifatlash 9.01% ga teng, ushbu san'atidan tabiat va insonlarning xususiyatlarini tasvirlashda ulardagi tasavvufiy muhitni yoritishda foydalangan, shuningdek satira va yumor 36.4%, mubolag'a 8.6%, kinoya 6%, epitet 2.1%, fantaziya 5.57%, allegoriya 4.3% adib ijodida tadqiq qilingan. Yuqorida keltirilgan tahlil natijalariga ko'ra, satira va yumor boshqa til ifoda vositalarini ifodalovchi taqsimotda faol tarzda mavjudligi ko'zga tashlanadi.

Yozuvchi satirada mubolag'adan, fantazyadan foydalanish orqali voqeani atayin bo'rttirib oladi. Yozuvchi satirik obrazning tashqi qiyofasini ham masxara qilib ko'rsatishi mumkin. Masalan, o'rganish obyektimiz Washington Irving asarlarida, xususan, "Rip Van Vinkl", "Arvoh kuyov", "Sirlı kema" kabi asarlarida muallif kishilarning nuqsoni ustidan kulmaydi, balki hajv, tanqid ostiga olingan kishilarning yaramas xislatlarini, xulq-atvorlarini bo'rttirib ko'rsatadi. Adibning "Rip Van Vinkl" hikoyasi bosh qahramoni Rip obrazi orqali davr va inson fojiasi satirik yo'l orqali ochib berilgan. Hikoya sujetida Ripning qismati, oilaviy ahvoli va o'zi tengi insonlardan ancha ortda qolganı (yosh holda) tasvirlari o'sha davr va davr insonlarining nuqsonlarini zaharxanda kulgu orqali ko'rsatib bera olgan. Jumladan:

"1760-yil Rip Van Vinkl degan odam Katskill tog'laridagi qishloqda, Amerikadagi ingliz aholisi yashaydigan koloniyada yashardi. Rip Van Vinkl mehnatkash odam emas edi, lekin qishloqdagi barcha bolalar uni yaxshi ko'rardi, chunki u doimo bolalar bilan o'ynardi. Bundan tashqari, u doimo qo'shnilariga yordam berardi va xursand bo'lardi, biroq o'z xotini va oilasi uchun u hech qachon ishlamasdi, shuning uchun uning oilasi juda kambag'al edi" [5].

Rip oilasidan, xotini ning diydıyolaridan qochib tog'ga ketadi va u yerdagi bir kechalik uyqu hayotida katta bir davrni yo'qotishiga olib keladi. U qishlog'iga qaytganda qishloq o'zgarib ketgan, uyi tanib bo'lmay avhvalda. Qadrdon iti esa unga qarab irillamoqda: "O'zining uyiga olib boradigan yo'lni unchalik mashaqqatsiz topib oldi. Lekin u tomonga dilida mana hozir Van Vinkl xonimning hayqirishi yangrasa kerak degan vahima bilan yaqinlashdi. Uylari qarovsizlikka yuz tutgan: tomi o'yilib, derazalari qiyshaygan, eshiklarning oshiq-moshig'i qo'porilib yotardi. Uy yonida oriq, chalaqorin, qashqirga o'xshagan bir it tentib yurardi. Rip uni chaqirdi, lekin it tishlarini g'ichirlatib irilladi-da, nari ketdi. Bu unga judayam alam qildi: "Mening o'zimning itima, - xo'rsindi bechora Rip, - u ham meni unutib qo'yibdi" [6].

Ripning kechmishi nihoyatda o'ziga xos tarzda bayon qilingan. Butun boshli yigirma yil bir yoz oqshomida o'tib ketmoqda. Bu, albatta, o'ziga xos kulgili va bir inson umrining naqadar ma'nisiz o'tganligidan dalolatdir. "Mehnatning og'ir yengilligiga qarab, kishiga oq non va qora non yeyish nasib etadi. Rip Van Vinkl bunga e'tibor bermaydigan, hatto mehnat evaziga farovon yashagandan ko'ra qo'lni qovushtirgancha och-nahor o'tirishni afzal biladigan boqi-beg'am fuqarolar toifasiga mansub kishi edi" [6]. Amerikaliklar Rip Van Vinkl ni eslab qolishga sabab bo'lgan holat uning dangasiligidir [7]. Mazkur misolda muallif obrazning dangasilik nuqsonini "boqi-beg'am" (take the world easy) so'zi orqali satirik tarzda qo'llagan. Hatto uning "bu qobilyati"ni oilasida farzandlariga meros qilib qoldiradi. Buning isboti quyidagi misolda berilgan: "Uning bolalari xuddi qarovsiz o'sgan yetimlarday yoqavayron, irkit bo'lib yurishardi. Uning o'g'li Rip quyib qo'yganday otasining o'zi edi va unga padarining na faqat

juldur kiyimi, balki fe'li ham meros bo'lib qolishi shundoqqina ko'rinib turar edi".

Rip beparvoligi, yalqovligi va oilasini xonavayron qilgani uchun Van Vinkl xonimdan tinmay dakki eshitardi. Shu sabali o'z uyidan tez-tez bosh olib chiqib ketar, qishloqning bekorchilaridan tashkil topgan klubga doimiy kelib turardi. Irving ushbu klub personajlarini "oqil-u falasuf" (sage) deb tasvirlab, tanqidiy yo'nalishning birlamchiligini maydonga keltiradi. "Lekin ba'zida qandaydir bir o'tkinchi yo'lovchi tashlab ketgan eski gazeta sabab bo'lib, ularning o'rtasida shunday donishmandlaracha munozaralar avj olardiki, ayrim bir davlat arboblarning bunaqa gaplardan voqif bo'lmoqligi uchun uncha-muncha pul xarj qilishlariga to'g'ri kelardi". Keltirilgan parchadagi "donishmandlaracha" (philosophers) so'zi bekorchilarni masxara qilib, satirik kulgini kuchaytirgan [5].

Muallif bu o'rinda mubolag'ali tasvirni qo'llaydi. Ma'lumki, mubolag'a arab tilida "kattalashtirish", "kuchaytirish" ma'nolarini bildirib, adabiy asarda tasvirlanayotgan badiiy timsol holati yoki harakatini bo'rttirib, kuchaytirib ifodalash san'ati demakdir [186-188]. Yozuvchi mubolag'asiz o'zining fikrlarini kitobxonga yetarlicha yetkazib berolmaydi.

"Shunda ular butun boshli lug'atdan eng murakkab so'zni ham tutilmasdan o'qiy oladigan maktab muallimi, mittigina va nihoyatda olifta kiyinib olgan olimchalik bo'lmish Derrik va Bummelning qiroatli o'qishini shunaqangi tantanavor vaziyatdagi bir diqqat bilan tinglashdirki, oho!"

Yuqoridagi misolda muallif mubolag'a usulidan foydalangan, kichkina, maqtanchoq va olifta muallim obrazini tasvirlashda olim darajasida ko'tarishi hajviy (satirik) kulgini namoyon qiladi yoki uning oliftaligi butun bir lug'at kitobidagi oddiy so'zlarni o'qishini klub bekorchilari tantanali tinglagan.

Muallif bu yerda muallim ustidan yumorni qo'zg'atgan. Ushbu holat ham Ripning xotini ning g'azabini keltirdi. Erimning boqi beg'am bo'lishida klub a'zolari aybdor deb o'yladi va "mo'tabar zotlar yig'inidan" Ripni mahrum etdi. To'da boshi Nikolas Vedder avliyosifat zot deb keltirilgan. Muallif ushbu qahramonga nisbatan teskari satirik modusni talqin etgan. Ya'ni qahramon o'zini buyuklar qatoriga qo'shmoqchi bo'lganini kulgi ostiga olyapti. "Bu oliy yig'inning ijtimoiy qarashlariga qishloqning otaxoni va qahvaxonaning egasi Nikolas Vedder rahnamo edi. U ertadan kechgacha qahvaxona oldidan jilmas, quyosh ko'tarila borganı sari kattakon daraxtdan tushib turgan soya qancha uzoqlashsa, oftobdan pana bo'lish uchun u ham shuncha ko'p surilib o'tiraverganidan qo'shniları uning harakatini kuzatib, vaqtı naq quyosh soatiga qarab bilgani kabi aniq aytib bera olishardi". Kulgi obyektı sifatida olingan personaj ertalabdan kechgacha soat vazifasini bajarishi ustidan kulinadi.

Yuqoridagi tahlilda Ripning Qashqir ismli kuchugiga to'xtalgan edik. U Ripning yakkayu yagona qadrdoni edi. Van Vinkl xonim erining dangasalik va bekorchiligida sherigi deb bilganidan zulimiga duchor bo'laverardi. "Gapning po'skallsini aytganda, barcha halol itlarga xos hamma xususiyatlarga ega edi, mabodo o'rmonning biron yirtqichiga to'g'ri kelib qolganida jasurligida hech bir hayvonga yon bermasdi, lekin doim g'iybat sasib turadigan qahrli xotin tilining ta'nalari qarshisida unaqangi jasurliklar ip esholmaydi-ku!" jumlasining yumoristik ruhi - jasurlikda tenggi yo'q it xonimning oldida xuddi bir jinoyat bilan qo'lga tushganday pusib, dumini osiltirib ma'vuslanib qolardi. Hazilning tabiiyligi yozuvchi it ustidan kulganida ko'rinadi.

Shunday qilib, Rip Van Vinkl o‘z uyidan bezib toqqa qochib ketadi. Rip Van Vinkl ni mitti kishilar yuz yillik rom bilan siylagach, qahramon chorak asr uxlab qoladi. Uyiga qarib qaytgan Rip vatani va vatandoshlarini taniy olmaydi. Chunki bu orada Angliyaning mustamlakasi bo‘lgan uning vatani mustaqillikni qo‘lga kiritgan edi. Hamma yerda grajdanlik huquqi, saylovlar, kongress a‘zolari hamda ozodlik haqida jar solayotgan siyosatdonlarni uchratadi. Amerika Qo‘shma Shtatlarining mustaqilligi barchaga erkinlik, teng huquqlilik keltirmagan edi. Yozuvchi yangi tartiblar ustidan kinoya qiladi. Kulgili joyi shundaki, sodir bo‘lgan o‘zgarishlar uni qiziqtirmasdi, chunki Ripning hayotidagi siyosiy o‘zgarishlar uni tashvishlantirmagandi. Hayotidagi yagona zolim inson, xotini o‘limi uni xursand qildi yozuvchi buni yumorning asosiy mezonini ekanligini ko‘rsatdi. “Gapning po‘skallasini aytganda, Rip siyosatning unchalik farqiga bormas edi: davlatlar va imperiyalar hayotida bo‘layotgan o‘zgarishlar uning diqqatini jalb etmasdi; u jabr-zulmning o‘zi shuncha yillar ozorini totgan bir turini – yubkaning zolimona hukromliginiga bilar edi. Uning baxtiga bu zulmga ham chek qo‘yilgandi; oilaviy bo‘yinturuqni bo‘ynidan xalos etgan Rip endi Van Vinkl xonimning istibdodini xayoligayam keltirmay uydan bemalol chiqib ketaverar va uyga istagan paytida qaytishi mumkin edi”.

Ushbu parchada Irving majoziy ma‘no qo‘llagan. Rip xotini o‘limi – Angliya hukmronligining yemirilishini nazarda tutgan, qolaversa, bu kulgi tanqidiy tabiatga egadir. Yigirma yil o‘tgandan keyin u o‘zligini anglash uchun kurashdi. Bunchalik o‘zgarishlardan ajablangan qahramonimiz yangi hayoti bilan tanishdi, “baxtli ota, baxtli beva, burjua respublikasining erkin fuqarosi va hurmatli oq soqoli” [9]. Asar so‘nggida o‘zining shaxsiyatini aniqladi.

**Xulosa.** Xullas, Vashington Irving o‘sha davrda sodir bo‘layotgan voqealarni Rip va uning qishlog‘i haqida, shuningdek, yigirma yil uxlab qolishi, uning oldingi va keyingi hayotidagi ikkilikni ochib beradi, konservativizmning islohatga qarama-qarshiliklari, o‘zlikni yo‘qotish va anglash kabi hodislarni tavsiflaydi. Ripning eski turmush tarziga sodiq qolgan odati bor edi, bu uning eskicha qarashlari bo‘lsa, bo‘layotgan o‘zgarishlarga moslashishi va yosh bolalar bilan do‘st tutinishi esa uning yangicha hayot tarzini ko‘rsatadi. Shuningdek, Rip oilasida o‘zligini yo‘qotadi, ammo qo‘shnilari orasida o‘z o‘rnini topadi. Bu ikki juft ikkilik qarama-qarshilikni yo‘q qilgandan so‘ng Dekonstruksiya nazariyasiga ko‘ra, o‘quvchilarga taqdim etilganda matnning turli talqinlarida stereotipik idrok buziladi.

#### ADABIYOTLAR

1. Хомидий Х., Абдуллаева Ш., Ибрагимова С. Адабиётшунослик терминлари луғати. –Тошкент: “Ўқитувчи”, 1970. – Б.199.
2. Днепров В.Д. Идеи времени и формы времени. – Москва, 1980. – С.598.
3. Боров Ю. Основные эстетические категории. – Москва, 1981.
4. Саримсоқов Б. Адабий турлар ҳақида мулоҳазалар//Ўзбек тили ва адабиёти.1993. №5-6.
5. Washington Irving. The story of Rip Van Winkle. July, 2019. www.speakesay-news.com.
6. Charles E. Bressler. 2003. – P. 238. Fan, J. & Yu, S. (2021). A Deconstructive Analysis of Rip Van Winkle. International Journal of Liberal Arts and Social Science, 9(1), – P. 1-5.
7. Magdalena Baga. The Character of Rip Van Winkle: Representation of disappearing cultural identity. October 2020 Jambura Journal of English Teaching and Literat ure 1(2):113-126.doi:10.37905/jetl.v1i2.8465.
8. Diyorbek Ro‘zamat o‘g‘li. Mubolag‘a-keng ommalashgan adabiy janr. Academic Research, Uzbekistan, 2020. – B.3. DOI: 10.24412/2181-1385-2021-8-186-188.
9. Nan-nan L. 2019. – P. 5. Fan J. & Yu S. (2021). A Deconstructive Analysis of Rip Van Winkle. International Journal of Liberal Arts and Social Science, 9(1), – P.1-5.
10. Fan J. & Yu S. A Deconstructive Analysis of Rip Van Winkle. International Journal of Liberal Arts and Social Science, 9(1), (2021). –P.1-5.